

HAYOT QADRI MASALASINING ADABIYOTDAGI BADIY TALQINI
*(Erix Mariya Remarkning “Qarzga olingan umr” va Mehmet Olaqoshning
“Peshonamdagi nur” asarlari qiyosida)*

Sattorzoda Xurshidabonu Sobir qizi,

Qarshi xalqaro universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi assist. o‘qituvchisi

E-mail: sattorzodaxurshidabonu@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hayot qadri masalasining badiiy talqini nemis yozuvchisi Erix Mariya Remarkning “Qarzga olingan umr” hamda turk adibi Mehmet Olaqoshning “Peshonamdagi nur” asarlari qiyosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson umrining mazmuni, uning vaqtinchalikligi va qadri mualliflar tomonidan qanday badiiy vositalar orqali ifodalangani ochib beriladi. Tadqiqot davomida hayot qadri tushunchasining jahon va turkiy adabiyotshunoslikdagi o‘rganilish darajasi ham ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqola natijalari hayotning mazmuni va insoniy qadriyatlarining badiiy ifodasi masalasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Hayot motivi, o‘lim motivi, adabiy pafos, xronotop, retrospektiv syujet, assotsiativ syujet, obraz, ekzistensializm, ma‘naviy poklanish, ruhiy kamolot, madaniy kontekst, dialog, monolog, xronikal syujet, logoterapiya, tragizm, kalssitsizm, realism, romantizm.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ художественного осмысления ценности жизни на примере произведений немецкого писателя Эриха Марии Ремарка «Жизнь взаймы» и турецкого автора Мехмета Олакёша «Свет на моём челе». В исследовании раскрывается, каким образом смысл человеческой жизни, её временность и ценность выражаются авторами с помощью художественных средств. В ходе работы также анализируется степень изученности понятия ценности жизни в мировой и тюркской литературоведческой науке на основе научных источников. Результаты статьи способствуют более глубокому пониманию смысла жизни и художественного выражения человеческих ценности.

Ключевые слова: мотив жизни, мотив смерти, литературный пafос, хронотоп, ретроспективный сюжет, ассоциативный сюжет, образ, экзистенциализм, духовное очищение, нравственное совершенствование, культурный контекст, диалог, монолог, хроникальный сюжет, логотерапия, трагизм, классицизм, реализм, романтизм.

Abstract. This article analyzes the artistic interpretation of the concept of the value of life through a comparative study of the works “A Borrowed Life” by the German writer Erich Maria Remarque and “The Light on My Forehead” by the Turkish author Mehmet Olaqoş. The research reveals how the meaning of human life, its temporality, and its value are expressed through artistic means by the authors. In the course of the study, the level of exploration of the concept of the value of life in world and Turkic literary studies is also examined based on scientific sources. The results of the article contribute to a deeper understanding of the meaning of life and the artistic expression of human values..

Keywords: life motif, death motif, literary pathos, chronotope, retrospective plot, associative plot, character/image, existentialism, spiritual purification, moral development, cultural context, dialogue, monologue, chronicle plot, logotherapy, tragedy, classicism, realism, romanticism.

Kirish. Hayot qadri va umr mazmuni masalasi inson tafakkurining falsafiy-ruhiy asoslarini tashkil qiladi. Masalaga psixologik aspektda qaralsa hayot qadri masalasi insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, ongosti jarayonlari bilan bog‘lanadi.[4] Insonshunoslik fani bo‘lmish adabiyotshunoslikda ham hayot va o‘lim motivi, umr mazmuni va uning qadri kabi mavzular badiiy talqinlarda in‘ikos etgan. Antik davrda bu masalaga tragizm belgilari seziladi. Xususan, Sofoklning “Shoh Edip” asarida taqdir,

hayot va umr mazmuni g'oyasi aks etadi.[5] Keyinchalik, Uyg'onish davri adabiyoti, klassitsizm, realism va romantizm metodlarida ham bu masala u yoki bu tarzda badiiy matnlarda singishib ketganligini guvohi bo'lamiz. Sharq adabiyotshunosligida hayot qadri va umr mazmuni masalasining ma'naviy-falsafiy talqini Islomiy falsafa va Sharq tafakkuri nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilinadi. [6]

Adabiyotlar sharhi. Hayot qadri masalasi insoniyat tafakkurining markaziy masalalaridan biri bo'lib, u Adabiyotshunoslikda ham alohida yo'nalish sifatida o'rganilgan. Ayniqsa, XX asrda yuzaga kelgan Ekzistensializm oqimi bu masalaga yangi falsafiy yondashuv olib kirdi. Ekzistensializm vakillari — Albert Kamyu, Jan-Pol Sartr kabi mutafakkirlar inson hayotining ma'nosi, uning absurdligi va erkinligi haqida fikr yuritib, hayot qadri masalasini falsafiy-estetik muammoga aylantirdilar. Ekzistensializmga ko'ra, hayot qadri insonning mavjudlik tajribasi, yolg'izlik, tanlov va o'lim bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bunda hayotning qadri uning o'tkinchiligi va noaniqligi bilan belgilanadi. [7] Jahon falsafasida, albatta, bu masala juda ko'p tekshirilgan va qator tadqiqotlar olib borilgan va xulosalar taqdim etilgan. Logoterapiya [8] asoschisi V. Frankl [9] inson hayotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi — **ma'no izlash** ekanini isbotlaydi. Uningcha, inson hayot va o'lim chegarasida haqiqiy hayot mazmunini anglab yetadi. Uning "Shunday bo'lsa-da hayotga "ha" deng...." kitobida nemis konslagerida o'tgan hayotiy tajriba va mahbuslarni kuzatishdan kelib chiqqan xulosalari o'rin olgan bo'lib, unda ta'kidlanishicha, Franklning konslagerdagi hamkasblari orasida omon qolganlar ijobiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan hayot mazmunini topishga muvaffaq bo'lishgan va keyin bu ma'noni o'zlaricha tasavvur qilishgan. [10] Psixoterapevt fikricha, "Insondan hamma narsani tortib olish mumkin, ammo bir narsani — o'z munosabatini tanlash erkinligini emas." [11]

Alber Kamyu o'zining "Sizif haqida afsona" asarida hayotning mazmuni masalasini "absurd" tushunchasi orqali tahlil qiladi. Unga ko'ra, hayot mohiyatan ma'nosiz bo'lsa-da, inson uni anglash va yashashni davom ettirish orqali mazmun yaratadi. Ma'budlar tomonidan jazolangan Sizifning og'ir toshni tog'ga chiqarib keyin tushirish tasviri orqali inson umri ma'nosizligini va ana shu ma'nosizlikda ma'no izlashga harakat qiladigan inson fojiasi ko'rsatiladi. "Hayotning eng muhim savoli — u yashashga arziydimi?" Bunday nigilistik yondashuv badiiy asarlarda insonning ichki kurashi va mavjudlik muammolarini tahlil qilishda keng qo'llanadi. [12] M.Baxtinning fikricha, badiiy asarlarda inson hayoti va mazmuni **dialogik munosabatlar** ya'ni jamiyat orqali ochilishini ta'kidlaydi. Uning qarashlari ayniqsa roman janrini tahlil qilishda muhim. Uning konsepsiyasiga ko'ra, "Inson o'zini boshqalar orqali angelaydi." [13]

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

– qiyosiy metod – Sharq va G'arb madaniy konteksi, ikki asarning poetikasi, g'oyasi, yetakchi motivlari qiyosi.

– Analiz va sintez – Ikki asarning badiiy matni tahlili orqali ulardagi umumlashmalik ajratib ko‘rsatildi va sintezlashtirildi.

– Umumlashtirish va xususiylashtirish– Hayot qadri masalasi jahon adabiyoti doirasida umumiyashtirilib Yevropa va Sharq adabiyotidagi talqini xususiylashtirildi.

Natija va muhokamalar. Sharq manbaalari xususan, islomiy manbaalarda hayot qadri va o‘lim masalasiga to‘xtalib o‘tish shart. Sharq tafakkurida mazkur masala o‘zining chuqur falsafiy asosiga ega bo‘lib tasavvufiy-ilohiy ma’noga ega. Sharq adabiyoti va falsafasida **hayot, o‘lim va umr mazmuni** masalasi G‘arbdagi ekzistensial yondashuvdan farqli ravishda ko‘proq **ilohiylik, taqdir, sabr va ruhiy kamolot** bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Xususan, G‘azzoliy hayotni insonning **ruhiy poklanish va Allohga yaqinlashish yo‘li** sifatida talqin qiladi. Ya’ni inson hayotini qalbini poklash va oxirat uchun tayyorgarlikdan boshlashi kerak. “Ollohni anglashdan avval o‘zni anglamoq joiz”, [14] deydi G‘azzoliy. Uning fikricha, hayot mohiyati inson o‘z-o‘zini anglagandan so‘nggina ruhiy poklikka erishadi ammo taassufki, bu hol hamisha har bir odam bilan ham bo‘lmaydi. “Afsuski, faqat insongina o‘zi haqida haqiqiy bilimga ega emas. Biz o‘zimizni faqat sirdan — u yoki bu qilmishimiz va tashqi qiyofamiz orqali bilamiz. Ruhiy mohiyatimizni bilishga urinmaymiz.”[14] Jaloliddin Rumi ta’limotida hayot va o‘lim birligi shunday talqin qilinadi. Rumi tasavvufiy qarashlar asosida o‘limni yo‘q bo‘lish emas, balki yangi hayotga o‘tish sifatida talqin qiladi. Uning “Masnaviy” asarida hayot va o‘lim o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida beriladi. “Ichingdagi ichingdadir” g‘oyasi o‘zlikni anglash va qalb xotirjamligiga erishmoqdir. Uning fikricha, o‘lim bu qo‘rquv emas, balki ruhiy kamolot Allohga yaqinlashish jarayonidir.[14] Uning “Har narsaga siqilma ey ko‘ngil, na bu dardlar qoluvchi, na bu umr” konsepsiyasida umrning o‘tkinchiligiga ishora bor. Umuman olganda hayot mazmuni va o‘lim o‘rtasidagi munosabatning badiiy talqini ularning muayyan madaniy maydondagi falsafiy asoslaridan kelib chiqadi.

Quyida G‘arb adabiyotining hayot va umr o‘tkinchiligi haqidagi E.Remark qalamiga mansub “Qarzga olingan umr” zamonaviy turk adabiyotining ayni shu mavzudagi Mehmet Olaqoshning “Peshonamdagi nur” asarlari qiyosi orqali hayot qadri masalasini ochishda o‘ziga xosliklar va umumiyliklarni ochishga harakat qilindi. (Adabiyotdagi biror motivning ikki xil asar misolida qiyosiy tahlil etish ilmiy tadqiqotlarda ko‘plab uchraydi.) [15] Nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark o‘zining “Qarzga olingan umr” asarini 1959-yilda yozib tugatdi. Unda poygachi Klerfe va tuzalmas sil kasaliga chalingan Lilianning munosabatlari hamda hayot mazmuni, umrning o‘tkinchiligi haqida so‘z boradi. “Remark bu asarning nomini aynan “Qarzga olingan umr” deb atadi. Asarning mazmuni qarz, mablag‘ bilan bog‘liq emas, albatta. Kitobda umr mazmuni, mohiyati, hayotning qadri, haqiqati haqida so‘z boradi. Yozuvchi obrazlarning hissiyotlarini shu qadar aniq qilib yoritadiki, siz qahramonlar bilan birga kulasiz, kerak joyida yig‘laysiz, ular his qilgan og‘riqni his qilasiz. Qisqa qilib aytganda, ular bilan birga yashaysiz.” Poygachi Klerfe sil kasaliga chalinganlar davolanadigan sanatoriyga do‘sti Xolmanni ko‘rgani borganda

Lililan ismli 24 yoshli ayol bilan tanishib qoladi. Lilian xasta, ammo ruhan erkinlikka intiladigan, bir xil hayotdan zerikkan va hayotning har lahzasini o'zi istagandek o'tkazishni xohlaydigan ayol edi. Klerfeni yordamida sanatoriyda qochishga muvaffaq bo'ladi va Parijda o'zi istagan hayotda hashamatda yashay boshlaydi. Asar shunday so'zlar bilan boshlanadi: "Qarzga olingan umr. Umrki, hech narsaga achinmaysan, yo'qotadigan narsaning o'zi yo'q, chunki endi yo'qotadigan narsaning o'zi yo'q. Bu – o'limga mahkunligingni bila turib sevish. Bu – har qanday vaziyatda ham quvonch uchun sabab topa olish. Bu – musibat chegarasida sevinish va halokat chegarasida tavakkal qilish." [1;3] Umrda yo'qotadigan narsang yo'qdek harakat qilish Lilianning hatti xarakatlari, yoki har qanday vaziyatda ham quvonch uchun sabab topa olish: Lilianning ko'ylaklar sotib olishidan baxt topishi, Venetsiyadagi operaga tashrif buyurishi, shoir yigit bilan vino ichishi, umuman, ko'ngliga kelgan ishni qilishi ham Lilianning hayotning har bir lahzasidan zavqlanishga intilishida ko'rinadi. Bu jihatdan turk yozuvchisi Mehmet Olaqoshning "Peshonamdagi nur" asarida bosh qahramon tuzalmas kasallikka chalinganligini bilgan paytdagi ichki kechinmasi va Lilianning ruhiy holatini badiiy talqin etishda sezilarli tafovutlar uchraydi. Asar bosh qahramoni Saljuqbey Liliandan farqli ravishda o'ziga to'q; katta kompaniya egasi, namunadagidek oilasi, farzandlari bor. Bolaligidan musulmon axloqi bilan tarbiyalangan, e'tiqodi va taqvosiga ega kishi. Lekin bir kuni hammasi o'zgardi. Shifokor unga peshonasidan tuzatib bo'lmaydigan o'simta o'sgani va saratonga chalingani hamda olti oy umri qolganligini bilib butun hayoti ko'z o'ngidan o'ta boshlaydi. Qahramon ruhiy holati, qalban zaiflashuvi ichki iztiroblarini yozuvchi juda tabiiy va ishonarli tasvirlaydi. Saljuqbey bir zum xotiralari, umrini nimaga sarflagani, afsuslari, ulgurmay qolgan ishlari haqida tafakkur qila boshlaydi. Hatto o'limdan keyingi jarayonlar, qabr azobi haqida ham o'ylashga ulguradi. Shu tobda kitobxon qahramon bilan birga yashaydi. U his qilgan kechinmalarni his qiladi. Saljuqbey va Liliandan farqli ravishda oxirat haqida tafakkur qiladi. Ruhiy xotirjamlikka intiladi. Asar boshlanishida shunday kirish so'z bor. "Ko'z oldinga insonlarni keltirdim. "Miyasiz" yashayotganlar ko'p edi, biroq baribir miyalari bor edi ularning. Hech ishlatilmagan "yap-yangi" miyalari!.." [2;1] Bunda inson ongi, miyasi garchand ishlayotgandek ko'rinsa-da, o'zligini anglamagan, hayot mohiyatini tushunmagan, dunyoga kelishdan maqsadini anglamagan insonlarga ishora bor. Yozuvchi "Ishlamaygan" deganda ayni shunday insonlarni nazarda tutadi. Fahmlash mumkinki, asarning g'oyasida *inson ruhiy kamolot va ma'nan yetuklik masalasi*, diniy e'tiqod softligi masalasi ilgari suriladi. Aslida, biz yashab turgan dunyo aslida foniy va o'tkinchi, inson o'lim bilan qachon yuzlashishini bilmaydi, ammo baribir bir kun o'sha kuni keladi. Inson o'zini xuddi bir umr yashayotgandek o'ylar ekan, har lahzadan xulosa chiqarib, umrni yaxshilik yo'lida sarflash, Allohni tanish unga yaqin bo'lish uchun harakat qilish kerakligini unutib qo'yadi. Asar davomida Saljuqbey shu narsani to'la anglab yetadi. Bu yo'lda unga do'sti Ismoilbey, Said domlalar yordam berishadi. U to'la o'zligini anglaydi. Allohga

yaqinlashadi, uning buyurganidek yashay boshlaydi va oilasini ham bunga da'vat etadi. Asar so'nggida Liliandan farqli ravishda Saljuqbey o'lmaydi, ammo "avvalgi" Saljuqbey o'lib go'yo dunyoqarashi va tafakkuri yangilangan Saljuqbey dunyoga keladi. "Qarzga olingan umr" asaridagi hayot va o'lim motivi konseptual jihatdan yaqin bo'lsa-da, madaniy kontekst yuzasida yondashganda bir qator farqlar uchraydi. Qolaversa, asar syujet qurilishi ham butunlay o'zgacha. Bu borada Remarkning uslubini professional badiiy asar deya olishimiz mumkin. Bir qarashda, Mehmet Olaqosh uslubi badiiylik komponentlari to'la yuzaga chiqmagan, asar xotiralar va o'y hayollar jamlanmasini yodga soladi. Ammo ikkala asar o'rtasidagi mushtaraklik hayot va o'lim o'rtasidagi oraliqda inson hayotning qadrini chinakamiga his qilishida. Tahlil davomida ikkala asarning o'xshash va farqli jihatlari quyidagi aspektlar misolida aniqlandi:

Kompozitsion qurilishi – ikkala asarning janriy xususiyatlari, voqelikni badiiy ifodalash uslublarida bir qancha farqlar uchraydi. Xususan: "Qarzga olingan umr"– Ko'p qatlamli syujet, retrospektiv usullar, ichki monologlar va dialoglar keng qo'llanadi. Retrospektiv va xronologik syujet asosida voqealar ketma-ketligi, xarakterlar dinamikasi ochiladi. Personajlarning barchasi asar g'oyasini ifodalashda faol ishtirok etadi. "Peshonamdagi nur"– Syujet nisbatan soddaroq, ammo ramziy va falsafiy qatlamlar ustun. Assotsiativ syujet unsurlari yetakchilik qiladi. Dialoglardan ko'ra ichki monolog yetakchilik qiladi. Asosan bir qahramon asar g'oyasini ochib berishda faolligi seziladi.

Hayot qadri va o'lim motivining badiiy talqini: "Qarzga olingan umr" asarida Lilian hayotni sevadi va undan zavq olishni istaydi. Har bir lahzadan baxt topishga intiladi. Qahramon ruhiyatida erk va ozodlikka intilish kuchli. Badiiy ironiya va falsafiy xulosalar orqali hayot qadri ko'rsatib beriladi. "Peshonamdagi nur" asarida Saljuqbey o'lim nafasini sezgach, o'zligini tanishga intiladi, yashashning asl mohiyatini anglab yetadi va Allohga yaqin bo'ladi. Din, dunyo va e'tiqod masalalari fonida hayot qadri motivi badiylashtirilgan.

Asar badiiy psixologizmi, qahramonning ma'naviy uyg'onishi Psixologizm mavjud, lekin ko'proq dialog va harakatlar orqali ochiladi. Lilian sanatoriyda ekanligida u yerdan ketishga, hayot ne'matlaridan bahramand bo'lishga intiladi. U o'lishini biladi. Ammo shu o'lim bilan yuzlashgungacha bo'lgan vaqtini qalbining tub-tubiga yashiringan orzularini ro'yobga chiqarishga harakat qiladi. "Lilian deraza yonidagi kresloga cho'kdi. "Yoshim yigirma to'rtida, – o'yladi. – Agnes bilan yoshimiz teng. Lekin Agnes o'ldi. To'rt yildan buyon tog'da yashayman. Undan oldin to'rt yil urush bo'ldi. Hayot haqida nimalarni bilaman? Vayronalar, Belgiya va quvg'in, ko'z yoshlari, qo'rquv, ota-onamning o'limi, ochlik, keyin yana ochlik va qochqinlik sabab kelib chiqqan kasallik. Ungacha yosh bola edim. Tunda shaharlar qanday ko'rinishda bo'lishini allaqachon unutib yubordim. Ko'cha va maydonlarni nurafshon etuvchi chiroqlar yog'dusi haqida nimalarni bilaman? Faqat to'silgan derazalar, qorong'ida portlagan bombalar yomg'irini bilaman, xolos. Men faqat uy, pana joy qidirish va qahramonni eslab qolganman. Xona sovuq

bo'lsa-da, bir bo'lak non topilsa, shuning o'zi baxt bo'lib qolgandi, o'q tegmaydigan pana joy topish – baxt. Keyin esa sanatoriyaga tushdim". [1;6] Lilian yoshligidan hayot ne'matlaridan bebahra holda voyaga yetgan. Uning xotiralarida baxt faqat bir bo'lak non topilishi bilan bog'liq. Ammo u baxtni turli yo'llardan izlab ko'rmoqchi. Baxtning har bir ko'rinishini tatib ko'rmoqchi bo'ldi. Asar yakunida Borisning Lilanning jasadida turib, Lilianning baxtli hayot kechirganligi haqida o'y o'tadi. Lilian baxtga intildi va uni topdi. U sanatoriyda yashasa ham u yerdan ketsa ham taqdiri ayon edi, ammo o'limgacha bo'lgan bosqichda u jim turmadi va har lahzadan baxt izladi va uning turli "ta'mini" tatib ko'rdi. Klerfe va Lilian munosabatlarida ham ramziy ishora mavjud. Asarda Klerfening xuddi abadiy yashayotgandek o'zini tutishi va Lilianning o'lishini bilgandek, shoshishida ham, o'limi aniq bo'lgan Liliandan avval Klerfening to'satdan halok bo'lishida ham hayot va o'lim orasi bir qadam ekanligi va har daqiqani qadriga yetish kerakligi uqtiriladi. "Peshonamdagi nur" asarida ong oqimi, ichki monologlar orqali kuchli psixologizm yaratilgan. Ayniqsa, Saljuqbey kasalligini bilib qolgach, bolalari, turmush o'rtog'i, ishchilari, do'stlari haqida o'y-hayollar qiladi. Xatolari va gunohlariga iqrorlik hissini sezadi. Hatto o'limdan keyingi qabr azobini ham tasavvur qiladi. Muallif qahramon ruhiy holatini tabiiy va ishonarli tarzda tasvirlaydi. "O'lishlarini, mutlaqo o'lishlarini bilgan bu insonlarga, faqat qachon o'lishlari bildirilsagina, hamma narsa, dunyodagi hamma narsa birdan o'zgaradi. Chunki, o'limni bilib, o'limni ko'rib yashash, yo'lbarlar kezib yuradigan o'rmonda sayr qilishdek bir gap edi!.. Har lahzada ustingizga tashlanishi mumkin bo'lgan yo'lbarlarni bila turib, xuddi hech qanday xavf-xatar yo'qdek, gulxanda go'sht pishirishingiz, o'yin-kulgu qilishingiz mumkinmi?!" [2;13]

Asardagi xronotoplarning badiiy talqini Aniq makon va vaqt doirasida kechadi, voqealar ketma-ketligi ustun. Voqealar Italiya, Parij, Venetsiya, Shvetsariyadagi sanatoriyada kechadi har bir makonning o'z badiiy yuki mavjud. Xususan, Shvetsariyada kasallikka chalingan insonlarning mushtarak jihatlari aks ettirilgan bo'lsa, Parijda Lilian va Klerfe muhabbati kurtak yozadi. Italiyada shiddatli poygalar zamirida hayotning shiddatli va tezligi ko'rsatib beriladi. O'tmish va hozirgi zamon uyg'unlashgan, ichki ruhiy makon muhim. Voqealar asosan bir shaharda va Saljuqbeyning ishxonasi, do'stining do'koni, va uyida bo'lib o'tadi.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hayot qadri masalasi turli milliy adabiyotlarda umumiy falsafiy ildizlarga ega bo'lsa-da, uning badiiy talqini muallifning dunyoqarashi va madaniy muhitiga bog'liq holda turlicha ifodalanadi. Erix Mariya Remark asarida hayotning qisqaligi va beqiyos qadri insonning har bir lahzani to'laqonli yashashi zarurati orqali yoritiladi. Bu yerda umr — "qarzga olingan" ne'mat sifatida talqin qilinib, uning har bir onidan zavq olish g'oyasi ilgari suriladi. Aksincha, Mehmet Olaqosh ijodida hayot qadri ko'proq ma'naviy sabr, taqdirga ishonch va ruhiy poklanish orqali ochib beriladi. Insonning ichki olami, iymon va e'tiqodi uning hayotga bo'lgan munosabatini belgilovchi asosiy omil sifatida tasvirlanadi. Shu jihatdan, har ikkala asar

ham hayot qadri masalasini turli badiiy-estetik yo‘nalishlarda talqin qilgan holda, inson mavjudligining chuqur falsafiy mohiyatini ochib beradi. Qiyosiy tahlil esa hayotning universalligi va ayni paytda milliy-madaniy o‘ziga xosligini bir butun holda anglash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erich Maria Remarque Qarzga olingan umr. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. — 320 b.
2. Mehmet Olaqosh Peshonamdagi nur. — Toshkent: Sharq, 2021. — 59 b.
3. Albert Camus A. Sisyph haqidagi afsona. — Toshkent: Akademnashr, 2015. — 160 b.
4. <https://www.britannica.com/art/psychological-novel>
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/dunyo-adabiyoti-turkumi-sofokl.html>
6. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: “Akademnashr” 2018
7. <https://plato.stanford.edu/entries/existentialism/>
8. Logoterapiya—bu ekzistensial terapiyaning bir shakli bo‘lib, u insonning asosiy motivatsion kuchi hayot mazmunini izlash ekanligiga asoslanadi.
9. Vilgelm Frankl (1905-1997) Avstriyalik nevrolog, psixiatr, faylasuf va Xolokostdan omon qolgan bo‘lib, logoterapiya asoschisi.
10. https://en.wikipedia.org/wiki/Man%27s_Search_for_Meaning
11. “В поисках смысла жизни”, Виктор Франкл. Beacon Press, 2006, ISBN 978-0807014264
12. <https://www.britannica.com/topic/The-Myth-of-Sisyphus>
13. <https://www.google.com/search?q=Bakhtin+Problems+of+Dostoevsky%27s+Poetics>
14. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/abu-homid-g-azzoliy?utm_source
15. Gulasal N., Sattorzoda X. POETIC FEATURES OF THE MOTIVE OF WAR IN THE NOVELS “HORIZON” AND “BETWEEN TWO DOORS.” POETIC FEATURES OF THE MOTIVE OF WAR IN THE NOVELS “HORIZON” AND “BETWEEN TWO DOORS.” //Shokh Articles Library. — 2026. — T. 1. — №. 2.